

ANDIJON MASHINASOZLIK INSTITUTI

“MASHINASOZLIK” fakulteti

“YER USTI TRANSPORT TIZIMLARI” kafedrası

DIPLOM LOYIHASI BO`YICHA

T U S H I N T I R I S H X A T I

Diplom loyihasining mavzusi: Jalaquduq tumanida yo`lovchi va yuk tashuvchi 120 ta avtomobil uchun avtotransport korxonasini tashkil etish.

Bitiruvchi: 5310600 - “Yer usti transport tizimlari va ularning ekspluatatsiyasi” yo`nalishi 4-kurs 105-13-guruh talabasi:

_____ **Ergashev.M**

Fakultet dekani: _____ **M.Qo`chqarov**

Kafedra mudiri: _____ **N.Ikromov**

Diplom loyihasi rahbari: _____ **Sh.To`rayev**

Maslahatchilar: _____ **U.Xolmatov**

_____ **Raximov A**

_____ **Teshaboyeva Z**

Andijon – 2017

ANDIJON MASHINASOZLIK INSTITUTI
“MASHINASOZLIK” fakulteti
“YER USTI TRANSPORT TIZIMLARI” kafedrası
DIPLOM LOYIHASINI BAJARISH BO`YICHA
T O P S H I R I Q

Ergashov Muhamadali.

1. Diplom loyihasining mavzusi: Jalaquduq tumanida yo`lovchi va yuk tashuvchi 120 ta avtomobil uchun avtotransport korxonasini tashkil etish.

Institut bo`yicha 2017 yil 12 yanvardagi 4-k- sonli buyruq bilan tasdiqlangan

2. Diplom loyihasini bajarish uchun ma`lumotlar:

Mavzu bo`yicha boshlang`ich ma`lumotlar, statistik kuzatishlar, soha bo`yicha qonun va qarorlarni bajarish bo`yicha

3. Tushintirish xatida keltiriladigan ma`lumotlar:

1) Kirish. Bu qismda talaba soha bo`yicha Respublikamizda erishayotgan yutuqlari, davlat dasturlari va ularni bajarilayotganligi va avtomobilsozlik sanoatining rivojlanish bosqichlari to`g`risida ma`lumotlar beradi. Bundan tashqari mavzuni hozirgi kundagi dolzarbligi va uning kejakdagi samarasi yoritiladi.

2) Asosiy qism. Mavzu bo`yicha bajarilgan diplom loyihasi mavzusining tahlili va adabiyotlar sharhi beriladi. Mavzuning asosiy mazmuni yoritiladi va zarur ma`lumotlar keltiriladi.

3) Konstruktiv (Texnologik) qism. Mavzu bo`yicha konstruktiv (texnologik) yechimlar keltiriladi.

4) Hayot faoliyati xavfsizligi va ekologiya qismi. Mavzu bo`yicha xavfsizlikni ta`minlovchi asosiy shartlar, mashina va mexanizmlarning xavfli zonalari, muhofazalovchi va saqllovchi to`siq vositalari va ekologik talablar kabi ma`lumotlar keltiriladi.

5) Iqtisodiy qism. Mavzu bo`yicha qilinayotgan loyiha yoki konstruksiya (texnologiya)ning iqtisodiy yechimlari keltiriladi.

6) Xulosa va takliflar. Mavzu yuzasidan yuqorida qilingan ishlar bo`yicha umumiy xulosa va takliflar keltiriladi.

**7) Foydalanilgan adabiyotlar ro`yhati.** Mavzuni bajarish davomida foydalanilgan adabiyotlar va internetdagi veb saytlarning ro`yhati keltiriladi.

8) Ilova. Mavzu bo`yicha maxsus jadvallar, diplom loyihasi oldi amaliyoti davrida to`plagan rasmlar va internetdan olingan ma`lumotlar ilova qilinadi.

4. Diplom loyihasining chizmalari ro`yhati (A3 formatda 6 list vatman):

a) Asosiy qism chizmalari (jadval, grafik va boshqalar):

1-chizma. Bosh reja

2-chizma. Ishlab chiqarish binosi

b) Konstruktiv qism chizmalari:

3-chizma. Bulkanizatsiya tsexi

4-chizma. Nozimxona

c) Tashkiliy qism chizmalari (reja, struktura va boshqalar):

5-chizma. Bulkanizatsiya jixosi.

d) Iqtisodiy qism bo`yicha jadvallar:

6-chizma. Iqtisodiy ko`rsatkichlar.

5. Diplom loyihasi qismlari bo`yicha maslahatchilar:

№	Diplom loyihasining qismlari	Boshla-nish muddati	Tugalla-nish muddati	Imzo	Maslahatchi-ning familiyasi
1	Kirish	11.01.2017	31.01.2017		Sh.To`rayev
2	Asosiy qismi	01.02.2017	28.02.2017		Sh.To`rayev
3	Konstruktiv (texnologik) qismi	01.03.2017	31.03.2017		Sh.To`rayev
4	Hayot faoliyati xavfsizligi va ekologiya qismi	01.04.2017	120.04.2017		Raximov A
5	Iqtisodiy qismi	01.05.2017	20.05.2017		Teshaboyeva Z
6	Xulosa va takliflar	22.05.2017	01.06.2017		Sh.To`rayev
7	Foydalanilgan adabiyotlar ro`yhati	01.06.2017	03.06.2017		Sh.To`rayev
8	Ilovalar	04.06.2017	09.06.2017		Sh.To`rayev

6. Topshhiriq berilgan sana: 11.01.2017 yil

7. Tugallangan diplom loyihasini topshirish sanasi: 06.06.2017 yil

Diplom loyihasi rahbari: _____ **Sh.To`rayev**

Topshiriq bajarish uchun qabul qilindi: _____ **Ergashov M**

Kafedra mudiri: _____ **t.f.n. N.A. Ikromov**

MUNDARIJA

I KIRISH	5
II.ASOSIY QISM.	13
II.1.ADABIYOTLAR SHARXI	13
II.2 YUK TASHISH JARAYONINI RIVOJLANTIRISHNI ZAMONAVIY ASOSLARI	16
II.3 YO`LOVCHI TASHISH JARAYONINI RIVOJLANTIRISHNI ZAMONAVIY ASOSLARI	18
II.4. YO`LOVCHI VA YUK TASHUVCHI AVTOMOBILLARGA TXK VA JT ASOSLARI	21
III.TEXNOLOGIK QISM.	26
III.1. JALAQUDUQ TUMANIDA YUK VA YO`LOVCHI TASHISH HAJMINI MARKETING ASOSIDA HISOBLASH	26
III.2 YO`LOVCHI VA YUK TASHISH SAROYINI TEXNOLOGIK HISOBLASH.	28
III.3. JALAQUDUQ TUMANIDA YO`LOVCHI VA YUK TASHUVCHI 120 TA AVTOMOBIL UCHUN AVTOTRANSPORT KORXONASINI TASHKIL ETISH.	45
IV. HAYOT FAOLIYATI XAVFSIZLIGI	52
V. IQTISODIY QISM	54
VI.XULOSA VA TAKLIFLAR	60
VII.FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR	65
VIII.ILOVALAR	67

I.KIRISH

Avtomobil transporti tizimining milliy iqtisodiyotdagi ahamiyatini anglab etgan xukumatimiz ushbu tarmoqning rivojlanishi uchun mustaqillikning dastlabki yillaridanoq zaruriy chora-tadbirlarni ishlab chiqdi. Eng avvalo, O'zbekiston Respublikasining 1997 yil 25 apreldagi 419-I – son «Shahar yo'lovchilar transporti to'g'risida»gi, avtomobil va daryo transportida yo'lovchilar va yuk tashishni tartibga soluvchi qonuniy va normativ-xuquqiy qonunlar qabul qilindi.[1]

Davlat ta'lim standartlari umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-xunar va oliy ta'lim mazmuniga hamda sifatiga qo'yiladigan talablarni belgilaydi. Davlat ta'lim standartlarini bajarish O'zbekiston Respublikasi xududidagi barcha ta'lim muassasalari uchun majburiydir.[2]

2017-yil Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili, deb e'lon qilindi. Bugungi majlisimizning asosiy mazmuni jihatidan quyidagi eng muhim masalalar: Birinchidan, nima sababdan o'tgan yilda iqtisodiyot tarmoqlari va hududlarni rivojlantirishning ayrim ko'rsatkichlariga erishilmadi? Buning uchun kim shaxsan javob beradi? [3]

Ikkinchidan, 2017-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim yo'nalishlari va ustuvor vazifalarini belgilab olishimiz zarur.

Uchinchidan, kelgusi besh yil davomida qanday strategik vazifalarni amalga oshirishimiz kerak?

Asosiy diqqat-e'tibor kamchiliklarni tahlil qilishga qaratiladi o'tgan yili prinsipial muhim islohotlarni amalga oshirish bo'yicha qat'iy qadamlar qo'yildi.

Asosiy diqqat-e'tibor kamchiliklarni tahlil qilishga qaratiladi o'tgan yili prinsipial muhim islohotlarni amalga oshirish bo'yicha qat'iy qadamlar qo'yildi.

2016-yil yakunlari bo'yicha yalpi ichki mahsulot 7,8 foiz o'sganligi qayd etildi, qurilish-pudrat ishlari hajmi salkam 12,5 foiz o'sdi. Yillik byudjet yalpi ichki mahsulotga nisbatan 0,1 foiz profitsit bilan bajarildi. Inflyatsiya darajasi 5,7 foizni tashkil qildi, ya'ni prognoz ko'rsatkichlari doirasida bo'ldi.

Iqtisodiyotga 16,6 milliard AQSH dollari miqdorida yoki 2015 yilga nisbatan 9,6 foiz investitsiyalar yo`naltirildi. Umumiy qiymati 5,2 milliard AQSH bo`lgan 164 ta investitsiyaviy loyihasini amalga oshirish yakunlandi. Jumladan

19,2 kilometrlik noyob tunnelga ega bo`lgan elektrlashtirilgan yangi Angren-Pop temir yo`l liniyasi qurildi. Toshkent-Buxoro yuqori tezonalishli Afrosiyob yo`lovchi tashuvchi elektropoezdlar xarakati tashkil etildi.

Bu islohotlarning asosiy maqsadi – aholi uchun munosib hayot darajasi va sifatini ta'minlashdir. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbarni – bu Bosh vazir yoki uning o`rinbosarlari bo`ladimi, hukumat a'zosi yoki hududlar hokimi bo`ladimi, ular faoliyatining kundalik qoidasi bo`lib qolishi kerak.

2017-2021-yillarda O'zbekistonni yanada rivojlantirish bo'yicha Harakat strategiyasi loyihasini keng muhokama qilish davomida 2017-yil uchun mo'ljallangan iqtisodiy va ijtimoiy dasturning o'n bitta eng muhim ustuvor vazifasi belgilandi.[4] Iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning asosiy yo'nalishlari va ustuvor vazifalariga jiddiy o'zgartirishlar:

Birinchi – fuqarolar bilan ochiq muloqotni yo'lga qo'yishning yangi samarali usul va mexanizmlarini tatbiq qilish, jumladan, barcha darajadagi hokimlar, prokuratura va ichki ishlar organlari rahbarlarining aholi oldida hisobot berish tizimini joriy etish kerak.

Ikkinchi – O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridagi, har bir tuman va shahardagi Xalq qabulxonalari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Virtual qabulxonasi faoliyatini samarali tashkil etishni ta'minlash darkor.

Ana shu ishlarning bosh maqsadi – fuqarolarning qonuniy murojaatlarini qisqa muddatda sinchiklab ko'rib chiqishni va hal etishni ta'minlashdir. Bu borada raqamlar va silliq hisobotlarning orqasidan quvib, navbatdagi kampaniyabozlikni uyushtirish kerak emas.

Uchinchi – Bosh vazir boshchiligida tuzilgan maxsus komissiya bir hafta muddatda «Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili» Davlat dasturi loyihasini,

kiritish. Makroiqtisodiy barqarorlikni yanada mustahkamlash va iqtisodiy o'sishning yuqori sur'atlarini saqlab qolish, jumladan, Davlat byudjeti barcha darajada mutanosib, milliy valyuta va ichki bozordagi narx darajasi barqaror bo'lishini ta'minlash – eng muhim ustuvor vazifamizdir.

Bu yil boshqa hokimliklar va tegishli organlar uchun ham subvensiyadan qutilish masalasida sinov yili bo'ladi. Buning uchun Makroiqtisodiyot kompleksi tarkibidagi vazirlik va idoralar har kuni, har haftada samarali va tinimsiz ish olib borishi kerak.

Hayotning o'zi va xalqning talablari murakkab vazifalarni qo'yimoqda. Bu o'rinda asosiy muaAMo, quyidagilardan iborat.

Birinchidan, ayrim idoralar va ularning rahbarlari real hayotdan va xalq ehtiyojlaridan ma'lum darajada uzilib qolmoqda.

Ikkinchidan, tarmoq va hududlarni rivojlantirish konsepsiyalari va dasturlarini ishlab chiqishda yuzaki yondoshilmoqda.

Uchinchi asosiy kamchilik – ko'pchilik rahbarlarning murakkab muaAMolarni kabinetdan chiqmasdan, iqtisodiyot tarmoqlari, har bir korxonadagi, shahar va tumanlarda, qishloq joylardagi ishlar chuqur o'rganmasdan hal etishga odatlanib qolgani bilan bog'liq.

Barqaror iqtisodiy rivojlanish tayanch tarmoqlarda:

Davlat tomonidan bu tarmoqlar doimo qo'llab-quvvatlanayotgan bo'lsa-da, nima sababdan izchil va barqaror o'sish ta'minlanmayapti?

«O'zbekneftgaz» kompaniyasi tizimida 2010-2016-yillarda qariyb 20 milliard dollarlik katta kapital qo'yilmalar kiritilganiga qaramasdan, suyuq uglevodorod va tabiiy gaz qazib olish kamaygan, bu borada xomashyo import qilish 1,3 barobar ko'paygan. Yirik va hayotiy muhim loyihalarni amalga oshirish muddatlari barbod qilinmoqda.

40 ming kishi ishlaydigan «O'ztransgaz» kompaniyasi tizimida muddati o'tgan debitor qarzdorlik 14 foizga oshgan. Oxirgi 10-yilda mineral o'g'itlarning narxi bir necha barobar o'sgan. Bundan dehqon va fermerlarimiz zarar ko'ryapti.

Birinchi yarim yilda asosiy e'tiborni quyidagi vazifalarni amalga oshirishga qaratish zarur:

birinchi – Navoiy va Olmaliq kon-metallurgiya kombinatlarida mahsulot ishlab chiqarish hajmini ko'paytirish bo'yicha tasdiqlangan dasturni so'zsiz amalga oshirishda bir-ikki foiz miqdordagi o'sish sur'atlari bilan chegaralanib qolish mumkin emas.

QIAMatbaho metallar ishlab chiqarishni ko'paytirish tezlashtirishi zarur

ikkinchi – nafaqat joriy yilda, balki yaqin 3-5-yilda foydalanishga topshiriladigan barcha strategik muhim obyektlarni o'z vaqtida ishga tushirish darkor;

uchinchi – neft-gaz mahsulotlari eksportini ko'paytirish, importni keskin kamaytirish va asbob-uskunalar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish hajmini oshirish uchun qo'shma korxona tashkil etish bo'yicha puxta ishlab chiqilgan aniq chora-tadbirlar kompleksini taqdim etish zarur.

Keyingi 10-yilda Vazirlar Mahkamasi komplekslariga qarashli vazirlik va idoralar tomonidan olib kirilgan asbob-uskunalar importi tahlil qilinmagan. Ularni mahalliyashtirishdan hech kim manfaatdor emas, bu masala bilan hech kim astoydil shug'ullanmayapti.

Mashinasozlik kompleksida avtomobilsozlik sanoatida ishlab chiqarish hajmi keyingi uch yilda 2,8 barobar kamaygan. Bu mamlakatimiz yalpi ichki mahsuloti o'sishiga jiddiy ta'sir ko'rsatmoqda. Bu sohada import hajmi eksportdan bir necha barobar yuqori bo'lib, mahalliyashtirish darajasi esa importga nisbatan 20 foizdan ham past bo'lib qolmoqda.

Butun qishloq xo'jaligi mashinasozligi tizimini tubdan qayta qurish ta'minlanmagan. Bu tizim o'z mohiyatiga ko'ra nafaqat qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash va fermer xo'jaliklari mehnatini yengillashtirishning mustahkam poydevori, ayni vaqtda mamlakatimiz valyuta balansini to'ldirish bo'yicha kafolatlangan manba bo'lishi kerak edi.

Oxirgi yillarda shaxsan siz kadrlar bilan ishlashni bo'shashtirib yubordingiz. Ko'pgina investitsiya loyihalarini ishlab chiqish cho'zib yuborilmoqda. Ichki

bozorimizning ko'plab tovarlarga bo'lgan ehtiyoji 50 foiz darajasida ham qondirilmayapti. Eksport bo'yicha topshiriqlar barbod qilingan. Tarmoqda haligacha zarur siljish yo'q.

«O'zstandart» agentligi rahbarligida sohada aniq ish va yakuniy natija bo'lmadi. Xalqaro standartlashtirish tashkilotining 21 ming standartidan atigi 13 foizi mamlakatimizda joriy etilgan, xolos.

Sizdan va tarmoq rahbarlaridan bugun quyidagi vazifalarni amalga oshirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar ko'rishingizni talab qilaman:

birinchi – avtomobilsozlik sanoatini rivojlantirish, uning mahsulotlari raqobatdoshligini, eng avvalo, yaqin va uzoq xorijiy mamlakatlar bozorlarida oshirish bo'yicha prinsipial jihatdan yangi tizim zarur. Bu borada men «otvertka bilan mashina yig'ish» emas, balki asosiy va yordamchi tarmoqlarni barqaror rivojlantirish, ortiqcha xarajatlar va tannarxni kamaytirish, mahalliyashtirish darajasini oshirish va importni qisqartirishni nazarda tutyapman;

ikkinchi – aholi uchun maqbul narxda turli maishiy elektr texnika buyumlarini ishlab chiqarishni ta'minlashimiz kerak;

uchinchi – o'tgan yili biz «O'zagrotexsanoatxolding» aksiyadorlik jamiyatini qayta tashkil etish bo'yicha muhim hujjatlar qabul qildik. Savol: ularni muvaffaqiyatli amalga oshirish va bu o'ta muhim tarmoqning barqaror ish yuritishini ta'minlash bo'yicha siz tomoningizdan qanday aniq chora-tadbirlar ko'riladi?

to'rtinchi – butun standartlashtirish tizimini tubdan qayta qurish kerak. Bundan ko'zlangan maqsad – mamlakatimizda ishlab chiqarilgan mahsulotlar zamonaviy xalqaro standartlarga javob berishi lozim.

Bular – mamlakatimizda yaratilgan texnologiyalarning raqobatdoshligini ta'minlash, “nou-xau” namunalarini yaratish, zamonaviy axborot-ko'AMunikatsiya texnologiyalarini joriy etish, ya'ni yuqori sifatli mahsulot ishlab chiqarishni ta'minlash bo'yicha tizimli chora-tadbirlarni amalga oshirishdir.

Bizda ulkan zaxiralar bor. Lekin shunga qaramasdan, o'tgan yili jami 1 milliard 540 million dollarlik prognoz ko'rsatkichlari bajarilmay qoldi.

Bizning mahsulotimiz eksport qilinadigan mamlakatlar soni 2010-yilga nisbatan 176 tadan 138 taga kamaygan.

Ayni vaqtda mashinasozlik kompleksi, «Oʻzfarmosanoat» konserni va «Oʻzbekenergo» aksiyadorlik jamiyati tizimidagi korxonalarda import hajmi eksport hajmidan oʻnlab marta koʻp.

«Oʻzqurilishmateriallari» aksiyadorlik jamiyati va «Oʻzbekneftgaz» kompaniyasi tizimida mahalliyashtirilgan mahsulotlar hajmi import miqdoriga nisbatan 25-120 foizdan oshmaydi.

Andijon, Qashqadaryo va Fargʻona viloyatlarida prognoz koʻrsatkichlari atigi 65-85 foiz bajarilganini qanday tushunish mumkin?

2017-yilda oldimizda turgan vazifalar toʻgʻrisida toʻxtalsak. Biz 10 milliard 800 million dollar hajmidagi mahsulot eksportini taʼminlashimiz kerak. Bu borada qanday kechiktirib boʻlmaydigan vazifalarni hal etishimiz zarur?

Birinchi – 15 kunlik muddatda komplekslar boʻyicha emas, chunki bu oʻzini oqlamayapti, balki eksportga mahsulot chiqaradigan barcha korxonalar boʻyicha harakat dasturini puxta ishlab chiqish va U.Rozuqulov rahbarligidagi maxsus komissiya majlisida tasdiqlash kerak.

Ikkinchi vazifa – 2016-yilda Toshkent shahri va xorijda oʻtkazilgan xalqaro sanoat yarmarkalarida jami 7,7 milliard dollarlik mahsulotni eksport qilish boʻyicha tuzilgan shartnomalarni amalga oshirish zarur va mahsulot sotishning yangi bozorlarini izlash boʻyicha boshlangan ishlarni yanada faol davom ettirish kerak.

Uchinchi vazifa – «Oʻztadbirkoreksport» va «Oʻzsanoateksport» aksiyadorlik jamiyatlari, 1 milliard 500 million dollarlik eksportni taʼminlash kerak.

Toʻrtinchi vazifa – meva-sabzavot mahsulotlarini eksport qilish. 15 kun muddatda oʻtgan yili 650 million dollarlik meva-sabzavot eksport qilinmay qolgani sabablarini atroflicha tahlil qilib, aniq takliflar kiritish topshiriladi.

Aholiga transport xizmati koʻrsatish, shahar va qishloqlarda avtotransport bilan yoʻlovchi tashishni yanada takomillashtirish toʻgʻrisidagi 10 yanvar 2017

yildagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentini PK- 2724 sonli qarori ga asosan: 12000 ta avtobus, 5700ta yo'nalishdagi taksi, 1200 dan ortiq avtoshox va avtoboshbekatlarni ta'mirlash va rekonstruktsiya qilish, 1700 km avtomobil magistral yo'llarini qurish, 10400 km shahar va tuman ichki yo'llarni kapital va joriy tamirlash, Chilonzor yo'nalishidagi metroni Sirg'aligacha uzaytirish, Yunusobod yo'nalishidagi metroning oxiriga etkazish, ertalab soat 10 dan kechqurun 16 gacha nafaqaxo'rlarni metroda bepul yurish to'g'risida qaror qabul qilindi. [5]

Mavzuning dolzarbligi. Jalaquduq tumanida yo'lovchi va yuk tashuvchi 120 ta avtomobil uchun avtotransport korxonasini tashkil etish, mijoz va yo'lovchilarni transportga bo'lgan talabini qondirish, tashish tannarxini arzonlashtirishni asosiy omillaridan biridir.shuningdek bu masalani xalqilish bandlik muammosini xal qilishda xududdagi axoliga bo'sh ish o'rinlarni yaratish imkonini beradi.

Diplom loyiha ishini ob'ekti-bu Jalaquduq tumanida yo'lovchi va yuk tashuvchi avtotransport korxonasi hisoblanadi.

Diplom loyiha ishini predmeti – bu yo'lovchi va yuk tashish tannarxini arzonlashtirish xarakat xavfsizlikni ta'minlash darajasini oshirish hisoblanadi.

Diplom loyiha ishini maqsadi-bu yo'lovchi yuk tashish jarayonini rivojlantirishdir .

Diplom loyiha ishini ilmiy yangiligi- bu yo'lovchi va yuk tashish zamonaviy uslublarini ishlab chiqishdir.

Diplom loyiha ishining amaliy ahamiyati shundaki, xududda tashish madaniyati oshadi .

Diplom loyiha ishini bajarish uchin quydagi rejalar belgilandi. Kirish va unda mavzuning dolzarbligi, tashish jarayonini rivojlantirishni zamonaviy asoslari; unda adabiyotlar sharxi, yo'lovchi va yuk tashish avtomobillar saroyida xizmat ko'rsatishni texnologik asoslarini hisoblash va loyihalash, hayot faoliyati

xavfsizligi,iqtisodiy qism, xulosa va foydalanilgan adabiyotlardan iborat bo`lib uni bajarish yakunida xulosa va takliflar ishlab chiqishdir.

Yuqoridagi modernizatsiya jarayonlariga asoslangan holda Jalaquduq tumanida yo`lovchi va yuk tashuvchi 120 ta avtomobil uchun avtotransport korxonasini tashkil etish shu kunning dolizarb masalasiga aylangaligini ko`rsatadi. Shuning ychun men Jalaquduq tumanida yo`lovchi va yuk tashuvchi 120 ta avtomobil uchun avtotransport korxonasini tashkil etish deb qabul qildim. Jalaquduq tumanida yo`lovchi va yuk tashuvchi 120 ta avtomobil uchun avtotransport korxonasini tashkil etish mavzusidagi DLI 5 qismdagi 5 ta jadval, 2 ta rasmdan va 67 ta sahifadan iborat.

II. ASOSIY QISM.

II.1.ADABIYOTLAR SHARXI

1 O'zbekiston Respublikasining 1997 yil 25 apreldagi «Shahar yo'lovchilar transporti to'g'risida»gi qonunidan diplom loyiha ishimni xuquqiy asoslarini yaratishda foydalandim. [1]

2 Vazirlar Mahkamasining - "Oliy ta'limning davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida"gi 2001 yil 16 avgustdagi 343 sonli qaroridan- diplom loyiha ishimdagi standart talablarni shakillantirishda foydalandim. [2]

3. Mirziyoyev Sh.M., "Mamlakatimiz 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2017 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturining eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan ma'ruzasidan- diplom loyiha ishimdagi ustuvor yo'nalishlarni shakillantirishda foydalandim. [3] .

4. Mirziyoev Sh.M., 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishlari bo'yicha harakatlar strategiyasi- diplom loyiha ishimdagi ustuvor yo'nalishlarni shakillantirishda foydalandim. [4]

5.Aholiga transport xizmati ko'rsatish, shahar va qishloqlarda passotransport bilan yo'lovchi tashishni yanada takomillashtirish to'g'risidagi 10 yanvar 2017 yildagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentini PK- 2724 sonli qaroridan - diplom loyiha ishimdagi ustuvor yo'nalishlarnimalga oshirish jarayonlarini shakillantirishda foydalandim. [5] .

6.Xodjaev B.A. Avtomobillarda yuk va passajirlarni tashish asoslari.- [6] bu o'quv qo'llanmada Jalaquduq tumanida yo'lovchi va yuk tashuvchi 120 ta avtomobil uchun avtotransport korxonasini tashkil etishda foydalandim.

7 Jean-Paul Rodrigue « The Geography of Transport Systems » New York: tomondan Transport tizimlari geografiyasi (uchunchi nashir) adabiyotida ushbu ustivor yo'nalishda: shahar transportirovkasi; transportirovka va iqtisodiyot; transport, energiya va atrof muxit kabi mavzular bo'yicha tadqiqot natijalari bayon qilingan, yuk va yo'lovchi tashishdagi xalqaro ustuvor yo'nalishlarni shakillantirishda foydalandim. [7]

8.Rassiyadagi Moskva avtomobil-yo'llari texnik universiteti professori V.M. Belyaevning "Avtomobillarda tashishni tashkil etish va xarakat xavfsizligi o'quv qo'llanmasida: xavfli yuklarni tashishni tashkil etish qoidalari; transport tariflari; tashishni boshqarishni avtotomatlashtirish; passajirlar tashishni boshqarish asoslari kabi mavzular o'rganilgan (2014) .[8]

9.Xo'jaev B.A "Yagona transport tizimlari va xar xil transportlar o'zaro yondashuvi-[9] bu o'quv qo'llanmada Jalaquduq tumanida yo'lovchi va yuk tashuvchi 120 ta avtomobil uchun avtotransport korxonasini tashkil etishda foydalandim .

10.Usmonov S.A, Raxmatullaev M.X. Texnik tizimlarni boshqarish, o'quv qo'llanma. -[10] bu o'quv qo'llanmada Jalaquduq tumanida yo'lovchi va yuk tashuvchi 120 ta avtomobil uchun avtotransport korxonasini tashkil etishda foydalandim .

11. Lukinskiy V., Logistika avtomobilnogo transporta.-[11]bu o'quv qo'llanmada Jalaquduq tumanida yo'lovchi va yuk tashuvchi 120 ta avtomobil uchun avtotransport korxonasini tashkil etishda foydalandim .

12.Avtomobillar texnik ekspluatatsiyasi. O'zRO va O'MTV avtotransport oliy o'quv yurtlari talabalari chun darslik sifatida tavsiya etgan. Prof. Sidiqnazarov Q.M. umumiy taxriri ostida, [12]- bu o'quv qo'llanmada texnik tizimlarni boshqarish turlarini qabul qilish xamda ularga ishlatish ko'rsatkichlarini belgilashda foydalandim.

13.Xamraev. O , Magdiev. Sh, Qodirov. T "Avtomobillar servisi asoslari" [12]- bu manbadan texnik tizimlarga servis xitmati ko'rsatish jarayonlarini tahlil qilishda foydalandim.

14.Musajonov M.Z. "Avtotransport tarmog'i korxonalarini loyihalash" [14]- bu adabiyotdan Jalaquduq tumanida yo'lovchi va yuk tashuvchi 120 ta avtomobil uchun avtotransport korxonasini tashkil etishda foydalandim

15.Maxmudov G.N "Avtomobillarning elektr va elektron jihozlari" (darslik) [15]- bu adabiyotdan Jalaquduq tumanida yo'lovchi va yuk tashuvchi 120 ta avtomobil uchun avtotransport korxonasini tashkil etishda foydalandim

16.E.Asatov, A. Tojiboev” Ishonchlilik nazariyasi va diagnostika asoslari” [16]- bu adabiyotdan Jalaquduq tumanida yo`lovchi va yuk tashuvchi 120 ta avtomobil uchun avtotransport korxonasini tashkil etishda foydalandim

17.Q.H. Azizov. “Harakatini tashkil etish asoslari” [17]- bu adabiyotdan Jalaquduq tumanida yo`lovchi va yuk tashuvchi 120 ta avtomobil uchun avtotransport korxonasini tashkil etishda foydalandim.

II.2. YUK TASHISH JARAYONINI RIVOJLANTIRISH ASOSLARI

Yuklarni tashish, ishlab chiqarish jarayonini davom ettirishga xizmat qiladi. U sanoatda tayyorlangan, qishloq xo'jalikda yetkazilgan mahsulotni iste'molchiga yetkazish hisoblanadi. Biroq ishlab chiqarish hajmi va tashish o'lchami jixatdan yil davomida taqsimlash tengligi to'g'ri kelmasligi mumkin. Sanoat va qishloq xo'jaligidagi hamma mahsulotlar ham transportga berilavermaydi. Uning aniq qismi joylarda iste'mol qilinadi. Bir qancha qism mahsulot transportga ikki va undan ortiq marta kelib tushadi[6-8].

Yuklar transport iqtisodiy maskanlarida ularning tashib keltirish va jo'natish uchun joylashtiriladi. Tashishlar shu maskanlar orasida amalga oshiriladi, oxirgi davrida yuk almashiladi.

Yuk to'planadigan joy deb, yuk hosil qiluvchi, yuk iste'mol qiluvchi belgilangan maskanlarga aytiladi. Yuk hosil qiluvchi maskandan jo'natilayotgan, yuklar soni, maskani jo'natish bo'yicha yuk aylanishini ifodalaydi. Yuk iste'mol qiluvchi maskanga kelib tushgan yuklar soni, berilgan maskanni tovar qabul qilish bo'yicha yuk aylanishini ifodalaydi. Yuklar to'planadigan va iste'mol qiladigan asosiy maskanlari, sanoat korxonalari, qishloq xo'jaligi jamoalari va fermerlari, elevatorlar, tayyorlav maskanlari, ruda to'planadigan joylari, temir yo'llari, suv bekatlari, aeroportlar, qurilish maydonlari, karerlari, bozorlar, material texnik omborlari, do'konlar va boshqalar. Yuk hosil bo'luvchi va yuk istemol qiluvchi maskanlarning joylashtirish, o'zaro transport aloqalari va ular orasidagi bog'lanish iqtisodiy ahamiyatga va xududiy joylanishiga bog'lik, ishlab chiqarish va istemol qiluvchi korxonalar va tashkilotlar, u tizimlar va barcha turdagi transport tovar kuzatib boruvchi, tarmoq, shuningdek yuklash tushirish maskanlari joylashish xarakteriga bog'liq. Asosiy yuk hosil qiluvchi nuqta xarakteri sanoat yoki qishloq xo'jaligi mahsuloti turi va navi, shuningdek tuman ichida va tashqarisida istemol qilinish bilan aniqlanadi.

Avtotransport bilan yuboriladigan yuklarni umumiy soni, ishlab chiqarish korxona quvvatiga mahsulotni boshqa transportga qismini yoki barchasini boshqa

transportga berib yuborish yoki ular o'lchami va qishloq xo'jaligi maydonlari unumdorligiga bog'liq.

Tashiladigan yuk muddati va davrlari reja bilan belgilanadi. Shular asosida vaqtincha ishlab chiqarish joylarida va omborlarda yuklar to'planib qolishi mumkin. Yuklar: zavodning kunlik mahsuloti, paxta va rudniklar, qishloq xo'jalik jamoalari, shirkatlar, fermer xo'jaliklarda don, paxta, qandlavlagi zaxiralari, tayyorlov punktlariga topshirguncha, belgilangan joyga jo'natguncha to'planib qolishlar misol bo'ladi.

Yuk hosil qiluvchi, bir qancha ob'ektlardan ko'p bo'lmagan har kuni tashishni talab qiluvchi kam sondagi yuklar punktlarda bo'lishi mumkin. Bunday turdagilarga: bozorlar, savdo do'konlari, ko'chalardagi axlatlarni tashish kiradi. Uzining ishlab chiqarish quvvati xarakteriga yoki xalq xo'jaligidagi ahamiyatiga ko'ra maskanlar bir vaqtda yuk hosil qiluvchi va yuk iste'mol qiluvchi umumlashgan(kombinirovanno'y) bo'lishi mumkin. Bir vaqtda yuk hosil qiluvchi va yuk iste'mol qiluvchi bo'lishi mumkin[5-7].

Bular qo'shma korxonalar, zavo'dlar, fabrikalar, temir yo'l bekatlari, portlar, pristanlar va ulgurja omborlar va boshqalar.

Umumlashgan maskanda yuk aylanishini jami yuk (to'нна) jo'natiladigan va qabul qilinadigan, bazi bir vaqtda tranzit yuklar yig'indisiga teng bo'ladi.

A T K tashish hajmi-bu ma'lum davrda tashishga mo'ljallangan yuk soni (tonna). Yuk aylanishi deb ma'lum davrda aniq masofaga tashilgan yukga aytiladi. O'zlashtirish muddatiga bog'liqligiga qarab yuk tashish hajmi va yuk aylanishi: kunlik, oylik, chorakli, yarim yillik va yilliklarga bo'linadi. Yillik yuk aylanish notekislikligi darajasiga qarab choraklarga oxirgi yillarda 1)-23,5 %, 2)-14-24,5 %, 3)-26-27 %, 4)25-25,5 % shuning uchun ATK vazifasi tashish hajmi notekisligi koeffitsient orqali biznes rejasini shakillantirish kerak.

$\eta = P_{mah} / P_{o'r}$ η - Qayta tashishni hisobga oluvchi koeffitsienti

$$\eta = Q_{пер} / Q_{fiz.amal} ; 1,1- 1,5$$

II.3. YO`LOVCHI TASHISH JARAYONINI RIVOJLANTIRISH ASOSLARI

Yo`lovchilar avtobus, yo`nalishdagi taksi, yengil taqsilar bilan tashiladi. Avtobuslar shaxarda: terma, tezyurar. Shaxaroldida: avtobuslar ikki turda qattik va yumshoq o`rindikli turlarda tashiladi.

Shaxarlararo yo`nalishlarda xam qattik va yumshoq o`rindikli avtobuslarda tashiladi. Avtobus yunalishlari uch turdan iborat:

- Viloyatlarni bir- biri bilan bog`lovchi yunalish;
- Viloyat ichidagi 50 km dan uzun bo`lgan yunalishlar;
- Davlatlarni bir-biri bilan bog`lovchi avtobus yo`nalishlariga bo`linadi.

Yo`nalishdagi taksilar passajirlar talabiga binoan xarakat xafsizligi talabiga javob bergan barcha joylarda to`xtaydi. Ta'rif bir passajirni bir marta yurishish uchun belgilanadi.

Yengil taksilar bilan passajirlarni talabiga binoan xarakat xafsizligi talabiga javob beradigan yo`llarda yuradi. Ta'rif bir marta o`tirish, bir to`lovchi, mijozda bir soat bekor turish uchun belgilanadi.

Shaxar, shaxaroldi avtobus yo`nalishlarida, Vazirlar maxkamasini qarori bilan imtiyozli va bepul yuruvchilar shaxarda yagona nusxadagi kartochkalar bilan, shaxaroldida xarbiy kishilar o`zlarini guvoxnomasi bilan bepul yuradilar.

Shaxardagi avtobus va yunalishdagi taqsilari xizmati Vazirlar maxkamasini qaroriga binoan tendir tanlovi o`tkazilib g`oliblarga yo`nalishni 6-12 oyga beriladi. Xamda goliblar bilan shartnoma tuziladi. Tendir g`olibi yo`nalishida boshqa avtotashuvchilar faoliyat ko`rsatishi mumkun emas. Tendir qatnashish uchun avtotashuvchi uyushmalar litsenziya olgan bo`lishlari, patent to`lovi to`lagan bo`lishi kerak.

Marshrutlar tizimi va haydovchilar mehnatini tashkil etish. Yo`nalishlarda avtobus qatnovchilari axoli talabi, avtokorxona ishlatish bo`lim xodimlari tomonidan imkoniyatlar o`rganilib chikkandan so`ng, ishchi gurux tuziladi. Ishchi gurux tarkibiga birlashma passajirlar tashish bo`limidan mutaxassis, avtokorxona

ishlatish bo`lim boshlig`i, DAN xodimi, xududiy yo`l ta'mirlash tashkiloti mutaxassisi, avtokorxona xarakat xavfsizligi muxandislaridan tashkil qilinadi.

Ishchi gurux yo`nalish ochiladigan yo`llarni xolatini, taxminiy passajir oqimini, yo`nalishga quyiladigan xarakat vositasi kabi xolatlarni o`rganib chikib, kamchiliklar bo`yicha, dalolatnoma tuzib, xokimiyatga topshiriladi. Yo`l xolati tuzatilib, so`ng ishchi gurux aniqlangan kamchiliklarni bartaraf qilinganlik to`g`risida ko`rib chikib, yo`nalishga xujjat qilish uchun rozilik beradi.

Avtokorxona avtobus yo`nalishi xujjatini tayyorlaydi. Xujjat tarkibiga pasport, yo`nalish sxemasi, yo`nalish xolati bayonnomasi, qatnov jadvali, korxonadan iborat bo`ladi.

Avtobus qatnovi joriy etilish uchun quyidagi xolatlar talabga javob berishi kerak:

ikkita transport vositasi bir birini bemalol qo`yib yuborishi kerak; piyodalar uchun yo`lchetida eng kamida 1-2 m gacha joy bo`lishi kerak.

Zakan-zavur kirg`oklari beton tuskichlar bilan tusilgan bo`lishi kerak. Yo`nalishga xizmat ko`rsatuvchi ATK barcha xujjatlarni tayyorlab, DAN, birlashma YTB, poritetdagi ATilar tomonidan tasdiqdan o`tkazilib shaxarda uch nusxada, shaxaroldida 4-6 nusxada, shaxarlararo yo`nalishlarda 8 nusxada tayyorlanadi. Tasdiqdan o`tkan xujjatlarni bir nusxali, shaxaroldi yo`nalishlar uchun qatnov jadvali nozimxonaga berilib, nozimxona nazorat qiladi. Shaxaroldi yo`nalishlari xo`jjatlari; narxnomasi, qatnov sxemasi jadvali AShK, ABB larga beriladi.

Haydovchilar kuniga 10 soatdan yuqori ishlasa kelguvchi kuni dam oladi. Xar 3-4 soatda 40-50 minut tanaffus qiladi. Xaftasiga 41 soat, oyda 169,2 soat ishlash mumkin.

Qatnov doimiyligi deb, jadvalga rioya qilib amalda bajarilgan qatnovlar sonini reja bo`yicha bajarish kerak bo`lgan qatnovlar soniga nisbatini yuzga o`paytirilganigateng o`lchov birligi % xisobida. Passajirlar oqimi, yo`nalishdagi avtobuslarni xar bir eshigiga odam quyiladi. Avtobus jadval bo`yicha xar bir bekatda tuxtab avtobusga chikkan va tushgan passajirlar sonini belgilab boradi.

So`ng passajirni yurgan masofasiga ko`paytirib yo`lovchi km topiladi. Jami kun bo`yicha yurgan passajirlar soni, passajir km yig`indisi topiladi. So`ng passajirlarni o`rtaga "Lur" yurish masofasini topamiz.

Jadval bo`yicha yurgan avtobuslar xatoligi ( 10 % ga ruxsat beriladi. Muzlama vaqtlarda barcha kilingan katnovlar jadval bo`yicha yurilgan xisoblanadi. Yonilgi yukligi sababli bajarilmay qolgan qatnovlar, qatnov rejasidan kamaytirib xisoblanishiga ruxsat etilgan. Xar bir qatnovga ketishdan oldin avtobus haydovchisini CHHV siga chipta nomeri junayotgan vaqt belgilanib so`ng xarakat boshlaydi. Passajirlar avtobusni orqa eshigidan chiqib joylashishlari, tushishda oldingi eshikdan tushishlari kerak, haydovchi xar bekatni el'on qilib borishi, chiptani esa salonda yurib sotishi kerak, qatnov oxirida navbatchi nozim Chptasiga belgi qo`yib chiptani oxirgi rakamini ezib berishi kerak.

II.4. YO'LOVCHI VA YUK TASHUVCHI AVTOMOBILLARGA TXK VA JT ASOSLARI

Harakatdagi tarkibning ishlash qobiliyatini ta'minlashning tashkil etishning asosini quydagilar tashkil etadi:

- TXK va ta'mirlashda ishlatish sharoitlari va harakatdagi tarkibning ularga moslashishni hisobga olgan me'yorlarini qo'llash;

- TXK va ta'mirlashni tashkil etishning namunali texnologik jarayonlarini qollash;

- TXK va ta'mirlashni tashkil etishning namunali texnologik jarayonlarini qollash;

- TXK va ta'mirlashda harakatdagi tarkibning texnik holatini diagnostika qilishni qollash;

- TXK va JTni markazlashgan usulda boshqarishni qollash;

- TXK va JTni mehnatga ishning piravord natijasiga ko'ra haq to'lash yoli bilan tashkil etishning brigade usulini qollash;

- bir tomondan harakatdagi tarkibning ishlash qobiliyatini ta'minlovchi bo'linma, ikkinchi tomondan ishlatish xizmati o'rtasidagi xo'jalik hisobini qollash;

- harakatdagi tarkibga TXK va ta'mirlash (belgilangan me'yorlarga amal qilgan holda) sifati va texnik holati uchun aniq ijrochilarning manfaatdorligi va shaxsan javobgarligining ma'naviy va moddiy tamoillarini qollash;

- aniq bir xizmat bo'yicha va uning bo'linmalari, birigada, ijrochilar ishini baholash, taxlil qilish va rejalashtirish imkoniyatini ta'minlovchi ko'rsatkichlarni qo'llash;

- harakatdagi tarkibning ishlash qobiliyatining ta'minlash jarayonlarini boshqarish uchun zarur bo'lgan axborotlarni etarli olishni ta'minlovchi ishlab chiqarish-texnika hisobini qollash;

- me'yoriy ko'rsatkichlarni amaldagi amaldagi ko'rsatkichlar bilan solishtirish asosida va avtotransport korxonalarida mavjud bo'lgan imkoniyat va sharoitlarni hisabga olgan holda harakatdagi tarkibning ishlash qobiliyatini ta'minlash ko'rsatkichlarni tahlil qilish, baholash va rejalashtirishni qo'llash. Bu

bilash bo'linma, birigada va aniq ijrochilarning harakatdagi tarkibning ishlash qobiliyatini ta'minlashdagi ulshi belgilanadi.

Avtotransport korxonalarida ko'pincha texnik xizmat ko'rsatish yoki ta'mirlashning ma'lum ishlarni bajarishga ixtisoslashgan ishlab chiqarish bo'linmalarini shakillantirishning texnologik tamoillari qo'llaniladi.

Bo'linmalar hajmini aniqlashda ularning boshqarilishi, ish bajaruvchilarning ish bilan bir xil ta'minlanishi va ishlab chiqarishni tashkil etishning ilg'or usullari, mexanizotsiya vositalarini samarali qo'llash imkoniyati ta'minlanishi lozim.

Ishlab chiqarishni tayyorlash bo'yicha hammaishlar, shu jumladan qismlarga ajratish, yuvish, qisimlarni yaroqli va yaroqsizlarga ajratish, butlash, tashish, ta'mirlanadigan va ta'mirlangan detallarni saqlash, ta'mirlash va ular bilan ishchilarni ta'minlash markazlashgan holda amalga oshirilishi lozim. Buning uchun chiqarishni tayyorlash bo'yicha ixtisoslashtirilgan bo'linmasi tashkil etiladi.

Yuqorida ko'rsatilgan avtotransport korxonalarida bo'linmalar ishi, ularning o'zaro aloqasi, ish vaqti, ishlab chiqarish maydonlari va uskanalaridan ancha samarali foydalanish haqidagi ma'lumotlar asosida ishlab chiqarish markazlashgan usulda bajariladi.

Harakatdagi tarkib yo'ldan qaytgandan so'ng, nazorat punktida tekshirilib qabul qilinadi. Bu vaqida uning butligi va tashqi holati ko'rikdan o'tkaziladi, buzilish va nuqsonlari yozib olinadi, zarur bo'lsa buzuvchilik haqida dalolatnoma tuziladi, rasmiylashtirilgan xujjat joriy ta'mir bajarish uchun ishlab chiqarishni markazlashtirilgan boshqaruviga beriladi.

Gaz balonli avtomobillar texnik-nazorat punktidan o'tgandan so'ng, ochiq maydonchada joylashgan ish joyiga (post), gaz apparatlarining zichligini tekshirishga yuboriladi, yuqori bosimli o'tkazgich quvirlarining hammasi, gaz balonlarining bo'yni, sariflash va magistral jumraklarning zichligi tekshirishdan o'tkaziladi.

Kundalik texnik xizmat ko'rsatishda (KTXK) harakatdagi tarkibning texnik holati nazorat qilinadi: moy va sovitish suyuqligini sathini tekshirish, kabina va platform (kuzov)ni tazalash, yuvish va quritish (ajratish) ishlari bajariladi.

Harakatdagi tarkibni yuvish extiyojga qarab mavsumiy sharoitlarni hisobga olgan holda sanitariya talablari va tashqi ko'rinishi qoniqarli bo'lishini ta'minlash maqsadida amalga oshiriladi. Avtomobilni TXK va Tgaqo'yishdan avval, albatta, uni yuvib, quritiladi. Oziq-ovqat mahsulotlarinitashishga iqtisoslashtirilgan avtomobillarning kuzovini bunday yuklarni tashish tartibini belgilovchi yo'riqnoma talablariga muvofiq zararsizlantiriladi, harakatdagi tarkib kundalik texnik xizmat ko'rsatishdan so'ng regaga muvofiq TXK va Tda turish mintaqasiga yoki texnik xizmat ko'rsatish va tamirlashni kutishga yuboriladi. Gaz balonli avtomobillar gaz apparatlarining gemetrik zichligini tekshirish va yuvishdan so'ng gaz tizimiga TXK va JTuchun alohida ajratilgan joyga yuboriladi. Zarur bo'lganda balondagi gaz chiqarib yuboriladi.

Ish dasturiga ko'ra TXK/ diognostika qilish/ ishlari oqimli qatorlarda yoki boshi berk postlarda, JT esa unversial va mahsuspostlarda bajariladi. Agar smena dasturi 1- TXK uchun 12-15, 2- TXK uchun 5-6 dan kam bo'lmasa, TXK qatorli oqimlarda bajariladi.

Oqimli qator tashkil qilish Harakatdagi tarkibi turini hisobga olgan holda bajariladi.

Joriy ta'mirlash operatsiyalarining bir qismi o'zining amaldagi davriyligi va mehnat hajmiga ko'ra qat'iy belgilanishi mumkin. Texnik xizmat ko'rsatish bilan berga joriy ta'mirning texnologik bog'liq va tez-tez takrorlanadigan kam mehnat sariflanadigan operatsiyalar bajariladi.

Avtomobillarga 1-chi TXK payitida birga bajarishga tavsiya etiladigan joriy ta'mirlash ishlarining taxminiy ro'yhati:

Birga sodir bo'ladigan ta'mirlash ishlarini bajarish payitida almashtirilishi mumkin:

- harakatlantiruvchi tasmalar;
- yoqilg'i mayin tozalagich stakan – tindirgich;
- yoqig'i uzatgichlar;
- moy tozalagich qopqog'i qistirmasi;
- mayin tozalash yoqilg'i tozalagichi qopqog'i qistirmasi;

- moyni markazdan qochma tozalash tozalagichi qopqog'i qistirmasi;
- ulashuv muftasi tepkisini tortuvchi pryjinasi;
- gidromexanik uzatmalar qutisi blakirovka klapani;
- kardanli val (mahkamlangan) mahkamlash bolti;
- press- maslenka;
- tormoz tizimi ichagi(shlangi);
- g'ildirak tormoz sozlash pishangi;
- fara, kichik fara, orqa chetki o'lchamlar chirog'i, to'xtash signali, burilish ko'rsatkichlari, tepa chet o'lcham chirog'I, yo'nalish ko'rsatkichlari, fara oynasi(nur tarqatuvchi), orqa va old fanarlari chiroqlari;
- fara optic elementi;
- orqa ko'rish oynasi;
- kamera ventili zolotnigi yig'ma holda;
- har xil o'lchamdagi bolt va gaykalar.

Avtomobillarga 2-chi TXK payitida birga bajarishga tavsiya etiladigan joriy ta'mirlash ishlarining taxminiy ro'yhati:

Birga sodir bo'ladigan ta'mirlash ishlarini bajarish payitida almashtirilishi mumkin:

- dvigatel tayanch yostiqlari va tayanchlarini mahkamlash boltlari;
- o'chirgich (glushitel) qabul qilish trubalari flantsi, dvigatel qabul qilish va chiqarish quvir-o'tkazgichlari, suv nasosi, dvigatel karteri paddoni qistirmalari;
- forsunka;
- yonilg'i haydovchi nasos;
- sovitish tizimi ichaklari(shlanglari);
- tsilindrlar bloke to'kish jo'mragi;
- isitish jomragi;
- suv nasosi;
- o'chirgich va o'chirgich quvirlari;

Ulashuv muftasi bo'yicha;

- asosiy tsilindr yig'ma holda;

- ishchi tsilindr;
- ishchi tsilindr ichagi(shlangi);

Uzatmalar qutisi bo'yicha:

- ikkilamchi val salnigi;
- uzatmalarni ulash mexanizmi qopqog'I;
- uzatmalarni ulash mexanizmi kardan sharniri;
- uzatmalarni ulash mexanizmi pishagi;
- uzatmalarni ulash pishagi prujinasi.

